

AYRIM O‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARI

Latifova Maftuna Yashin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti, Tillar fakulteti,

O‘zbek va rus tillari kafedrasida o‘qituvchisi

latifovamaftuna186@gmail.com

Dilnavoz Narziyeva Qurbonovna

Buxoro shahar 1-maktab

Ona tili va o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: etalon, o‘xshatish, lingvomadaniy, lingvokulturologiya, turg‘un o‘xshatishlar.

O‘xshatish turli xalqlarning madaniyatini yaqqol namoyon qilib beruvchi uslubiy vositalardan biri deya olamiz. Ularda gapiruvchining kechinmalari, tasavvurlari, shuningdek, butun xalqning milliy va madaniy an‘analari muhrlangan bo‘ladi. O‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur mahsuli sifatida yuzaga keladi. O‘xshatish ham badiiy tasvir vositasi sifatida, ham stilistik trop sifatida o‘rganiladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qiymatga ega bo‘ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatish nutqning mazmundorligi va unumdorligini oshiradi va gapiruvchi yoki yozuvchining estetik mahoratini ham ko‘rsata oladi.

Professor Nizomiddin Mahmudov o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni to‘rt unsurga ajratib, ularni o‘xshatiladigan narsa yoki subyekt, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb nomlaydi.[1] “Zebining tiniq g‘uborsiz janon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o‘tkir ovozi qo‘shildi”. (Cho‘lpon “Kecha va kunduz”) Bunda o‘xshatish subyekti – ovoz, o‘xshatish etaloni – piyola, o‘xshatish asosi – janon, o‘xshatish vositasi – -dek.

O‘xshatishda chog‘ishtiriladigan narsa ham asosan uning to‘g‘ri ma’nosida qoladi. O‘rganish jarayonida o‘xshatishlarning ikki turini uchratishimiz mumkin. Ular :

- 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar;
- 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar.

Tildagi o‘xshatishlarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg‘un o‘xshatishlarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo‘lishini, ular ko‘p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo‘llanish natijasi sifatida turg‘unlashib,

soʻzlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, oʻxshatish etalonining, yaʼni oʻxshatish asosidagi obrazning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qatʼiy bogʻliq boʻlishini taʼkidlaydi. [3]

Turgʻun oʻxshatishlar tarkibida oʻxshatish obrazi, yaʼni etaloni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu unsur oʻxshatishning markazini tashkil qiladi va boshqa unsurlar (oʻxshatish subyekti, asosi, koʻrsatkichi) ayni shu etalon atrofida birlashadi. V. Maslovaning fikricha, oʻxshatish etalonlari anʼanaga kirgan obrazlar sifatida xalqning dunyoni oʻziga xos idrok etishning ifodachisi boʻlganligi bilan til, madaniyat va mentalitet munosabatlarini belgilash jihatidan juda muhimdir. Chunki bu oʻrinda maʼlum predmet bir predmetga oʻxshatilsa, xuddi shu predmet boshqa oʻrinda ikkinchi narsaga oʻxshatilishi mumkin va bu elementlar turli millatlarda turlicha ifodalanadi.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatiga koʻra [5], turli lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsaning, masalan, hayvonning turgʻun oʻxshatish etaloni sifatida qoʻllanishini kuzatish mumkin. Masalan, tulki ayyorlik, aldoqchilik, yolgʻonchilik ramzi, etaloni sifatida oʻzbek, ingliz va boshqa koʻplab tillarda faol ishlatiladi, masalan: “tulkiday ayyor”, “хитрый как лиса” (rus madaniyatida), “as false as fox”, “as sly as a fox”, “as cunning as a fox” (ingliz tilida). Shuningdek, oʻzbek tilining oʻziga xos turgʻun oʻxshatishlari sifatida “qoʻydek yuvosh”, “arvohday ozgʻin”, “echkidek qaysar”, “musichaday beozor” kabilarni misol qilib koʻrsatish mumkin. “Musichaday beozor” oʻxshatish etalonida milliy-madaniy konnotatsiya mavjud, unda “beozorlik” belgisining oʻzbek xalqiga xos taʼkidi yaqqol oʻz ifodasini topgan. [4]

M.: Uyalish kerak, oʻrtoq direktor, menday musichadek beozor kishini ranjitgani qanday koʻnglingiz boʻldi? (Guldasta)

Qattiq bezovta, chorasiz insonlar uchun oʻzbek tilida “oyogʻi kuygan tovuqday” oʻxshatishi qoʻllaniladi.

Oʻzbek lingvomadaniyatida oʻrdakning u yoqqa, bu yoqqa tashlab, chayqalib yurishi *oʻrdakday lapanglamoq* oʻxshatishi vositasida ifodalanadi: M.: Taomil oʻzgarmabdi: sochi qoshigacha tushgan yigit qoʻllarini choʻntakka solgancha, oʻrdakday lapanglab kelib, uning qarshisida toʻxtadi (T. Malik “Soʻnggi oʻq”). [6]

Goʻzallikni oʻzbek lingvomadaniyatida “ oyday”, “suqsurday” oʻxshatishlari mavjud boʻlib, suqsur oʻrdakning bir turi boʻlgan qush nomidir. Ushbu oʻxshatish faqat oʻzbek tiliga xos boʻlib, unda milliy-madaniy qarashni koʻrish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oʻxshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Oʻxshatishlar oʻzida ijtimoiy-tarixiy, madaniy, adabiy axborot saqlaydi. Turgʻun oʻxshatishlar har ikki tilning tamomila oʻziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuri va anʼanalarini aks ettiruvchi, bejirim va taʼsirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tunganmas manba, avlodlar oʻrtasidagi obrazlar vorisiyligini saqlovchi muhtasham vosita sifatida juda katta etnopsixologik, lisoniy madaniyatshunoslik va lingvopoetik qimmatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov N. O‘xshatishlarda milliy mentallik jozibasi .Til va adabiyot ta’limi . 2019 yil, 2-son.
2. Maxmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. - Toshkent :Ma’naviyat, 2013.
3. Некрасова Н. Сравнения общеязыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных идиолектов // Лингвистика и поэтик. –М.: Наука, 1979. –С. 225; Лебедева Л. Устойчивые сравнения русского языка. – Краснодар: Кубинский ГУ, 2003. –С. 3; Хакимзянов Ф. О словаре устойчивых сравнений татарского языка // Российская тюркология. – Москва-Казань, 2010. -№2. –С. 80.
4. Rajarova Malika Ahmadali qizi, Allegorical Means Specific to Oral Speech, European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2 | Issue 2 | ISSN: 2795-8612. Page 85-87
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Alisher Navoiy nomidagi Til va Adabiyot instituti.
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent 2019. 157-bet.
7. Jiyanqulovna, J. R. L., & Ilhomovna, S. D. (2024). O ‘ZBEK TILI VA XALQINING SHAKLLANISHIDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O ‘RNI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 44(4), 127-130.
8. Zhiyankulovna, J. L. (2024). A Linguopoetic and Linguocultural Study of Craft Names in Alisher Navoi's Poetry. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 147-152.
9. Laylo, J. R. (2024). NAVOIY ASARLARIDAGI OZIYQ-OVQAT VA O ‘SIMLIKLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI. News of UzMU journal, 1(1.3), 299-302.
10. Latifova, M. (2024). O ‘ZBEK TILIDA QO ‘SHMA SO ‘ZLAR TADQIQI (RAVISH SO ‘Z TURKUMIGA OID QO ‘SHMA SO ‘ZLAR MISOLIDA). Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 53-57.
11. Latifova Maftuna Yashin qizi, & Qomilboyeva Nuquljon Ixtiyor qizi. (2024). ERKIN O‘XSHATISHLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 45(5), 54–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/13886>
12. Latifova Maftuna Yashin qizi. (2024). O‘ZBEK TILIDA ERKIN O‘XSHATISHLARNING AYRIM XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 45(4), 48–52. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/13834>
13. Asadov, T. H. (2023). NATURAL CHARACTERISTICS OF EXPRESSING SIGN AFFIXES-cha/larcha/chasiga,-an,-ona. Innovative Development in Educational Activities, 2(23), 223-229.

14. Асадов, Т. Х. (2022). O'ZBEK TILIDA SO'Z YASALISHI TADQIQI VA RIVOJI XUSUSIDA. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(2).
15. Tilavova, M. (2024). "ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA QO 'LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA SINONIMIYA HODISASI VA ANTANAMIYA HODISASI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 62-67.
16. Tilavova, M. (2024). LINGUISTIC AND SPIRITUAL CHARACTERISTICS OF SOME PHRASEOLOGICAL UNITS IN TAHIR MALIK'S "HUMAN PROPERTY". Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(9), 26-30.
17. Bafojeva, N. (2024). ABDULLA QODIRIYNING "O 'TKAN KUNLAR" ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 25-30.
18. Azimovna, N. B. (2024). THE UNIQUE PLACE OF THE CONCEPT OF SPEECH CULTURE LINGUISTICS. Лучшие интеллектуальные исследования, 19(1), 133-135.